

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

SHEROBODDARYO QISHLOQLARI AHOLISI MAROSIMLARINI ETNOGRAFIK TAXLILI

Norqobilov Mansur Norsaitovich

Surxondaryo viloyati Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar boshqarmasi korruptsiyaga
qarshi kurashish bo‘yicha bosh mutaxassis

Annotatsiya: Usbu maqolada Sheroboddaryo qishloqlari aholisi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik barcha kasb egalari o‘zlarining kasbiy pirlariga ega bo‘lishgan va ularga atab turli xildagi marosimlarni bajarganlari etnografik taxlil bayon etilgan.

Sheroboddaryo qishloqlarida aholi tig‘iz yashaganligidan XX-asrning birinchi yarmida hukumat tomonidan yangi o‘zlashtirilgan yerkarda tez-tez ko‘chirilib turishiga olib kelgan. Shu bois, Ko‘hitangtob‘ qishloqlari bilan Surxon vohasi va Tojikistonning janubiy mintaqalarida yashovchi aholi madaniyatida umumiylig yuzaga kelganligi etnografik dala yozuvlari va tarixiy manbalar asosida talqin etilgan.

Kalit so‘zlar: Sheroboddaryo qishloqlari aholisining an’anaviy xo‘jalik marosimlari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va ovchilik, yirik ulamolardan *risola* olishlari, Darveshona, Bobodehqon «suv sulton xotin», «suz xotin», «shox moylar», «loy otar» kabi marosimlar.

Аннотация: В статье представлен этнографический анализ того факта, что жители деревень Шерабаддари, занимавшиеся всеми профессиями, включая земледелие, скотоводство и ремесла, имели своих профессиональных богов и совершали в их честь различные обряды.

Плотная заселенность деревень Шерабаддари привела к частому переселению их на вновь освоенные земли правительством в первой половине XX века. Таким образом, возникновение общих культурных сходств между селами Кохитангтога и народами, проживающими в Сурханском оазисе и южных районах Таджикистана, интерпретируется на основе этнографических полевых записей и исторических источников.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Keywords: Traditional economic rituals of the residents of Sherobodaryo villages: farming, animal husbandry, crafts and hunting, receiving treatises from great scholars, Darveshona, Bobodehkan rituals such as "water sultan wife", "suz wife", "horn oils", "loy atar".

Sheroboddaryo qishloqlarida yashovchi aholining urf-odat va an'analari uzoq asrlar davomida shakllangan bo'lib, kishilarning tabiatga bo'lgan munosabati, hayot ta'minotini yaratish natijasida vujudga kelgan. Tog' qishloqlari aholisi o'z xo'jalik faoliyatlari davomida turli xil marosimlarni o'tkazib kelganlar. Ushbu marosimlarni to'rt guruhga bo'lish mumkin. Bular: 1) dehqonchilik marosimlari; 2) chorvachilik marosimlari; 3) hunarmandchilik marosimlari; 4) ovchilik marosimlari.

XX-asr boshlarida, hatto Ikkinci jahon urushidan keyingi yillarda ham barcha kasb egalari, shu jumladan, ovchilar ham albatta «risola» olishlari shart edi. Risola yirik ulamolar tomonidan bitta varaqqa yozilib, unda kasb egasi qilishi lozim bo'lgan ishlar ko'rsatilar edi. Zero shunday qilinsa, ishi yurishib, bemalol kun kechirishi mumkin deb hisoblashgan. Bunday risolalar tumor kabi olib yurilgan. Xalqimiz orasida «xuddi risoladagidek bo'lsin» degan naql ham shundan kelib chiqqan.

Sheroboddaryo qishloqlarida dehqonchilik bilan bog'liq marosimlar keng tarqalgan bo'lib, ular yilning turli fasllarida o'tkaziladi. Xususan, yiliga bir marta-Yilboshi (Navro'z) oldidan aholi tomonidan «darveshona» marosimi uyushtiriladi.

Darveshona-Alloh yo'lida o'tkaziladigan sadaqadir. Unda odamlar yil yaxshi kelishi, turli xil ofatlardan saqlashni maqsad qilishadi. Marosimni o'tkazish uchun odamlardan pul yig'iladi. Boy kishilar qo'y berishadi. Tegirmonda bug'doy tortib, yorma qilib qaynatiladi. Qo'y so'yib dumbasiga go'shtni qovurishadi. Har bir odamga bir kosadan yorma, kosaning ichiga pishirilgan go'sht solib beriladi. Odamlar «darveshona — tishga davo» deb ovqatni yeyishadi. Yetim-yesirlar bu tadbiriga to'liq jalb etiladi va ularga ehson ajratiladi. Darveshonada mulla yoki eshon kelib, elga, yurtga tinchlik va omonlik so'rab duo qiladi.

Sheroboddaryo qishloqlari dehqonlari yerni ekinga tayyorlab, urug'ni ivitib qardashdan bir kun oldin *Bobodehqon* marosimini o'tkazadilar. Ushbu marosimda qon chiqarilib (imkoniyatiga qarab, tovuqdan to qo'ygacha), Allah yo'liga sadaqa qilinadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Ulamolar Qur'on o'qib, xuddi darveshonada bo'lgani singari Allohdan hosil barakali bo'lsin deb duo qiladilar.

O'rganilayotgan hududda bog'bonlarning piri sifatida hazrati Nuh alayhissalom, suvchilarda esa, hazrati Sulaymon alayhissalom shaxsi muqaddaslashtirilgan. Hazrati Nuh alayhissalom to'fondan keyin yerga birinchi bo'lib novdani qadaganligi uchun bog'bonlar piri sifatida ulug'langan.

Bahorgi yer haydash oldidan shoxmoylar marosimi o'tkaziladi. Chilonzor, Xomkon qishloqlarida bu marosim shox qochov deyiladi. Negaki, qishki sovuqda buqaning shoxi yorilishi natijasida uning yorilgan uchi odamlar va chorvaga tegib jarohat yetkazishi mumkin. Buni oldini olish uchun oldiniga buqaning shoxi moylanadi. Keyin qochov (maxsus egov) bilan uchi egovlanib, yorilgan joyi olib tashlanadi va to'mtoq holga keltiriladi. Shundan keyin buqa yer haydashga tayyor bo'ladi. Boysuntog' tizmasidagi qishloqlarda esa «shoxmoylar» marosimi vaqtida qo'shiq aytishadi, ayrim kishilar ehson chiqarishadi. Ushbu udum dushanba, chorshanba yoki juma kunlaridan birida o'tkaziladi.

Tog' qishloqlarida har yili mart oyida *loy otar* udumi bajariladi. Bunda qishloqning to'lib qolgan ariqlari hashar yo'li bilan tozalanadi. Har bir kishi o'ziga belgilangan joyni loyqadan tozalaydi. Denov tumanida ham xuddi shunday udum mavjud bo'lib, u «loy tutish» deb ataladi. Farqi shundaki, ariq tozalayotgan kishilar oldidan biror yo'lovchi o'tib qolsa, unga bel yoki ketmonda loy tutishadi. Yo'lovchi uzatilgan ish asbobini loyi bilan birga olib, hasharchilar tomonidan ko'rsatilgan ariqni tozalab berishi, yoki o'zining biror hunarini ko'rsatib, vaziyatdan chiqib ketishi lozim bo'ladi.

Dehqonchilikning ob-havo bilan bog'liqligi aholi o'rtasida turli udumlarni yuzaga keltirgan. Masalan, 20-fevraldan 21-martgacha bo'lgan sanoqli kunlarning dastlabki 15-kuni *Hut* deyiladi. Bir naqlida: *yaxshi kelsa hut, kadi to'la sut, yomon kelsa hut soy to'la put* deb aytildi. Hutzdan keyin kirgan *Ajuzmomo* 6 kun davom etadi. Bu to'g'ridagi naqlida: *Ajuzmomo olti kun, yetalasa yetti kun, sakrasa sakkiz kun, to'qraysa to'qqiz kun, o'qraysa o'n kun, -deyiladi.*

Qurg'oqchilik bo'lganda aholi tomonidan suv chaqirish marosimlari o'tkaziladi. Ko'hitangtog' qishloqlarida bu marosim «Suv sulton xotin» yoki «Suz xotin», o'zbek laqaylarida esa «sus xotin» deb ataladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Marosimning boshqa shakli «Suz xotin» deyiladi. Bunda kattagina yog‘ochdan qo‘g‘irchoq xotin yasaladi. So‘ngra marosim egasi xo‘roz so‘yib sadaqa chiqaradi. Bunda, albatta, qichqiriq xo‘roz so‘yiladi. Uy egasi niyat qilib qo‘g‘irchoqni o‘choq boshiga olib keladi va uni yerga tikka qilib qo‘yadi. O‘choqdan chiqqan tutun zarar qilmasligi uchun qo‘g‘irchoqni qozondan bir-ikki metr narida qo‘yishadi. Dasturxonga ovqat tortilganda qo‘g‘irchoq ham dasturxon boshiga olib kelinadi. Ovqatga duo o‘qilgach, barcha qo‘g‘irchoqni o‘rtaga olib o‘ynatadi va atrofidan aylangan holda marosim qo‘shig‘ini kuylashadi. Marosim tugagach, qo‘g‘irchoqni maxsus qurilgan kichik uychaga kiritib qo‘yishadi. Xalq «Suz xotin»ni xuddi (suvdami yo falakda) suzayotgan ayoldek tasvirlagan. Shuning uchun ba’zan «sulton» so‘zining o‘rniga «suzdon» so‘zini qo‘shishadi.

Janubiy Tojikistonda yashovchi o‘zbek laqaylarida yomg‘ir yog‘may qurg‘oqchilik xavfi yuzaga kelgach, qishloq oqsoqollari maslahatlashib, qiziqchi bitta erkakka ayolning kiyimlarini kiygizib, eshakka teskari o‘tirg‘izib, «sus xotin» qo‘shig‘ini aytib, eshakni uyma-uy yetaklab yuradilar. Uy egalari bu «sus xotin»ning ustidan suv quyib, imkon qadar biron narsa bergenlar. Keyin quduq, buloq yoki daryoning boshiga borib, odamlar bir-birining ustiga suv sepishib, yig‘ilgan xayru-ehsonni o‘rtaga qo‘yishib, birga yeishib, Yaratgandan yomg‘ir yog‘dirishni so‘rashadilar.

Qo‘g‘irchoq ishlatib yomg‘ir chaqirish marosimi Kavkazda yashovchi turkiy xalqlarda ham qayd etilgan. Qozon tatarlari o‘tkazadigan yomg‘ir chaqirish marosimida qo‘g‘irchoq bo‘lmaydi. Uning o‘rniga qurbanlik ovqati yeb bo‘linganidan keyin kunning qolgan qismida yoshlar yo‘lida uchragan har bir kishisiga suv sepishadi. S.Ye.Malovning yozishicha, bu odat qurbanlik oshi bilan birga qurg‘oqchilik vaqtida yomg‘ir chaqirishdagi shamanlik vositasi hisoblanadi.

Odatda yomg‘ir chaqirish marosimi fevraldan, ya’ni kichik chilla tugab, hut kirishidan to aprelga qadar bo‘lgan vaqtarda o‘tkaziladi. Marosim o‘tishi bilan yomg‘ir yog‘a boshlagach, dehqonlar yer haydab, bug‘doy ekayotgan vaqtida bir qo‘lida o‘sha qo‘g‘irchoq, bir qo‘lida bug‘doy bo‘ladi. Yerga urug‘ sepayotgan vaqtida marosim qo‘shig‘ini kuylashadi. «Suz xotin» marosimi yakunida qo‘g‘irchoq kuydiriladi yoki eski quduqqa tashlanadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Nima uchun qo‘g‘irchoqda aynan ayol obrazi berilgan? Sababi, qadimgi turkiy xalqlarda ayol muqaddas, ulug‘lik hamda baraka timsoli hisoblangan. Shu bilan birga, «Suz xotin» marosimi ko‘p jihatdan qadimgi ajdodlarimizning diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, qadimgi xorazmiylar ispandormajи oyining o‘ninchи kunida *vaxshangam* degan hayit bayramini nishonlashgan. *Vaxshangam* – Vaxsh suviga, ayniqla, Jayhun suviga vakil qilingan farishta ismidir. Kushon tangalarida uchraydigan *Ardoxsho* ma’budasining nomi «Oxsho ruhi» ma’nosida kelib, tadqiqotchilar tomonidan *Vaxsh* so‘ziga to‘g‘ri kelishi aniqlangan. Qadimgi baqtriyaliklar *Oxsho* (*Oaxsho*) xudosiga atab ibodatxona (Tojikistondagi Taxti Sangin) ham qurbanlar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Termiz yaqinida joylashgan Tallitog‘ora tepaligi miloddan oldingi I ming yillikda suv xudosiga bag‘ishlab qurilgan inshoot ekanligi ma’lum bo‘ldi. *Oaxsho/oxsho* qadimgi turkiycha o‘kuz so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, «suv» degan tushunchani anglatadi. Ko‘p xudolilik davrida bu atama «suv xodosi» degan ma’noni ortirgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, «Suz xotin» qadimgi suv kulti bilan bog‘liq marosim bo‘lganligi anglashiladi. Islom dini tarqalgan davrda ham bu marosim unutilmagan. U zamonasiga moslashib, boshqa ko‘rinishlarda bizning davrimizga qadar yetib kelgan.

Bug‘doyni o‘rib yanchishdan oldin bitta molni so‘yib xirmonning boshida ehson berishadi. Agarda bug‘doyni somondan ajratayotganda shamol bo‘lmasa, yana bir marosim — «Yo Haydar» o‘tkaziladi. Bug‘doy yanchilganidan so‘ng xirmondan bir g‘alvir donni to‘rvaga solib qishloq ulamosi yoki kambag‘alga olib borishadi. Har bir xirmondan bir g‘alvirdan bug‘doy olinadi. Bu sadaqa «haqula» deb ataladi. Aholi xirmon yig‘iladigan joy bilan bedazorlarni asragan, ularni muqaddas deb bilishgan. Shu bois xirmonjoyga tom qilishmagan, bedapoyada janzoza o‘qishmagan. Bunda hosildan baraka qochadi deb irim qilishgan.

Dehqonchilikda bo‘lgani singari, chorvachilikning ham o‘z marosimlari bor. Mart oyining oxirlarida cho‘ponlar molni yozgi yaylovga chiqarayotgan paytda ko‘chaning ikki chetiga xashakka isiriq qo‘shtan holda olov yoqishadi. Bunda ko‘ch ortilgan eshak va otdan tortib qo‘y-echki va yirik shoxli qoramolgacha olov o‘rtasidan o‘tkaziladi. Odamlar, yonayotgan olov molni har qanday balo-qazodan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

saqlaydi, deb biladilar. Bu an'ana barcha ko'chishlarda amalga oshiriladi. Umuman olganda, XX-asr o'rtalariga qadar tog' aholisi yiliga uch marta bir joydan boshqa joyga ko'chib turishgan.

Tog'liklar o'z chorvasini asrash uchun bir qator usullardan foydalanadilar.

Chunonchi, bahorning boshlarida cho'ponlar mollarini tog' yonbag'irlariga, chukri, oq chayir va boshqa achchiq ta'mli o'simliklar – andiz, zirk, yovvoyi kavrak, yovvoyi bodom, yovvoyi ko'knor, kampirdevona, afg'ono't unib turgan joyga haydab borib, o'sha yerda o'tlatishadi. Achchiq ta'mli o'simliklar chorvaga davo bo'ladi. Negaki, bu o'simliklar qo'ylarning qurtini o'ldiradi. Agar mol kasal bo'lib qolsa uchqat daraxtining shox-shabbalarini bir doshqozonga solib qaynatishadi. Bu jarayon bir sutka davom etadi va uch marta almashtirib qaynatiladi. Oxirida silta-qaylesi qolgach chorvaga ichiriladi.

Ko'klamning ilk kunlarida odamlar o'z qo'ylarini Xomkondagi Oxurliota, Xo'jaulkandagi Xo'jaulkanota, Xatak va Panjob oralig'idagi Mixcha, Xo'janqondagi Xo'janqonota, Kampirtepadagi Xo'jaabdushota va Qizilolmadagi Cho'ptashar ziyoratgohlariga olib boradilar. An'anaga ko'ra, ziyoratgohga cho'pon tayog'ini tashlab, uch marta mollarini aylantiradilar. **So'ngra Alloh yo'lliga bitta mol so'yib sadaqa chiqarishadi.** Ba'zi momolar uchta xamirni pishirib, molimiz ko'paysin deb, bola-chaqasi bilan bo'lishib yeyishadi. Maydarоq qo'y kasal bo'lsa Xo'jaulkanga borib sadaqa berib o'qitishadi. Ziyoratgohlarning ahamiyati haqida quyidagi xalq naqli saqlanib qolgan: *Mol tilasang Xo'jaabdush, bosh tilasang Xo'janqon.*

Bundan 60-70-yillar oldin zamонави dori-darmonlar bo'lmagan vaqtда aholi chorvasi kana, burga, gang kabi hasharotlardan ko'p talofat ko'rар edi. Hasharotlardan saqlanish uchun turli chora-tadbirlarni o'ylab topishgan. Agar chorvani burga bilan kana bosib ketadigan bo'lsa, qo'ton bilan yaylovnи almashtirishadi.

Agar chorvada taloq kasalligi tarqab, qirilib ketish xavfi tug'ilsa, u holda bo'rini og'zini bog'lab, qo'ylarning ichida yurg'iziladi. Bu odат *bo'ri oratalish* deyiladi. Shundan keyin kasallik ko'tariladi. Xomkonda esa qo'ylarda taloq kasalligi tarqalgan paytda butun otarni Cho'pon ota qabriga olib borilib, atrofidan uch marta aylantiriladi va kasallikni olib qolsin degan maqsadda cho'pon o'z tayog'ini shu yerda qoldirib ketadi.

Agar ko‘klam seryog‘in kelib, shamol bilan yog‘adigan bo‘lsa, u holda suruvni shamolga teskari haydab «o‘rish» yo‘nalishi tanlanadi. «O‘rish»—bu qo‘ylarni oziqlantirish yo‘nalishidir. Bunda poda qo‘tondan 15 km uzoqlikda o‘tlatiladi. Chorva bir kunda borish-kelishi bilan o‘rtacha 30 km yurib, qo‘toniga qaytadi. Qishki mavsumda chorva qo‘tondan 3-5 km masofada o‘tlaydi. Negaki, qish kunlari qisqa bo‘lib, qor, yomg‘ir, ayniqsa tumanli kunlarda adashib qolishi mumkinligi hisobga olinadi.

Qurg‘oqchilik, bo‘rilar hujumi, qaroqchilar, sel, hayvonlar orasidagi yuqumli kasalliklar chorvadorlar uchun haqiqiy ofat hisoblanadi. O‘z chorvasini himoya qilish uchun cho‘ponlar miltiq, pichoq hamda qamchi olib yuradilar. Cho‘ponlarning yonida maxsus o‘rgatilgan bo‘ribosar itlari bo‘ladi. Agar itlari bo‘rini bosa olsa, qo‘y so‘yib quyrug‘ini xomlay unga beradilar. Negaki, bo‘ri bilan olishgan paytda itning tishi, tirnoqlari bo‘shashib qoladi. Shuning uchun itga issiqlik va jismoniy qobiliyatini yo‘qotmasligi, oldingi holatini tiklashi uchun shu tadbir o‘tkaziladi.

Cho‘ponlarning yordamchilari—cho‘liqlardir. 3-4 ta cho‘liqning boshlig‘i «arkar» deyiladi. Arkar bo‘lish uchun 5-10-yil kerak bo‘ladi. U tog‘ning toponimini bilishi, qo‘yni qanday boqish, bo‘ri qayerdan kelishi va shu kabi bilimlarni mustahkam egallagan bo‘lishi lozim. Arkarlikka o‘tish uchun maxsus sinov o‘tkaziladi. Unga ko‘ra, arpa yoki bug‘doy unidan ikkita ko‘mma pishiriladi. Ularning birini cho‘liqqa, ikkinchisini olg‘ir itga bir vaqtning o‘zida beriladi. Agar cho‘liq itdan oldin ko‘mmani yesa, uni arkarlikka tayinlashadi. Agar yeyolmasa yana oldingidek cho‘liqligicha qolaveradi.

Cho‘ponning tayog‘i ulug‘ sanaladi. Cho‘pon uni o‘z o‘g‘liga yoki eng ishonchli shogirdiga topshiradi. Cho‘pon tayog‘i toq sonda 13 yoki 15 tutamdan iborat bo‘lib, 1,3-1,5 metrga teng bo‘lgan. Uni hatlab o‘tish ta’qilanganadi. Cho‘ponning tayog‘i irg‘ay, zarang, tug‘dona daraxtlaridan qilinadi. Bunda, cho‘pon ham shu daraxtlar singari qattiq, mustahkam, chayir bo‘lishi maqsad qilinadi. Cho‘ponning tayog‘i, kelinning oyog‘i degan naql ham bor.

Otardagi qo‘ylar o‘z-o‘zidan o‘lavansa, «chiroq yoqish» amali o‘tkaziladi. Bunday hollarda cho‘pon biron-bir matoni yog‘ochga boylab, moyga botiradi va yonayotgan matoni dastlab sarkalarning, so‘ngra qo‘ylarning tagidan o‘tkazib oladi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Bunda olov har qanday yovuzlikni oldini oladi degan ishonch bor bo‘lib, islomgacha bo‘lgan diniy e’tiqodlarda muqaddas deb hisoblangan.

Tog‘ qishloqlaridagi sayislar o‘z otlarini yomon ko‘zdan saqlash uchun turli irim-sirimlarni o‘ylab topishgan. Axborotchilar bergen ma’lumotga ko‘ra, agar otga kinna kirsa, suqlansa u bezovtalanib, kasal bo‘lib qoladi. Shunday holatda qurquray degan qushning inini olib kelib tutatishadi va otga islatishadi. Natijada ot birpasda tinchlanib qoladi.

Qurquray (kurkurak)—beozor, ovoz chiqaruvchi, pati quyonning juniday mayin qush. Ko‘hitang, Boysun, Hisor va boshqa tog‘larning eng baland cho‘qqilarida, odam oyog‘i yetmaydigan joylarda in quradi. Uni faqat mohir qoyachilar va ovchilargina olishlari mumkin.

Qurquray ini topilmagan taqdirda dami o‘tkir xalfalar otning jilovi, yugani, qamchisi, ola ipi, xalfaning pichog‘i yoki tasbehi bilan silaydilar. Xalq tushunchasiga ko‘ra, otning devi kuchli bo‘lib, dami kuchsiz mullaga ziyon yetkazib, og‘zini qiyshaytirib qo‘yishi mumkin. Shu bois, otni faqat maxsus tayyorgarlik ko‘rgan xalfalar o‘qishadi. Xalfa deganda, ko‘z tekkanni o‘qiydigan, kinna va suqni silaydigan kishilar tushuniladi.

Chorvadorlarning o‘z homiylari bor. Zangiota—qoramollar piri, Cho‘ponota—mayda mollarning piri, Qambarota—ot va chopag‘onlar piri, Vosil Qora—tuyakashlar piri sanaladi. Pilla qurti boqadiganlar esa, hazrati Ayyub alayhissalomni o‘zlariga pir deb bilishadi.

Tog‘ qishloqlarida yashovchi hunarmand-ustalarning o‘ziga xos udumlari bor. Hunarmandlar halol kun kechirishlari lozim edi. O‘z navbatida hunarmanddan biror buyum sotib olinsa, ustani rozi qilish shart hisoblanadi. Buyumni sotib olganidan so‘ng sotib oluvchilar ustalarga qarab *rozi bo‘ling* deydilar.

Hunarmandchilikning har bir tarmog‘i o‘z piriga ega bo‘lgan. Tegirmonchilar hazrati Jabroilni, o‘rmakchilar bilan bo‘zchilar Shishnovulni (hazrati Shis alayhissalom), temirchilar hazrati Dovudni, tikuvchilar hazrati Idris alayhissalomni, quruvchilar hazrati Ibrohim alayhissalomni, qassoblar Jomard boboni, kashtachilar va bezakchilar Bahouddin Naqshbandiyni, juvozchilar Xoja Ro‘snoyini, kulollar hazrati Mirkulol otani (Farg‘ona

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

vodisida Mehri Kulol) o‘zlariga pir deb bilishadi. Hunarmandlar har yili Alloh yo‘lida biron-bir jonliq so‘yib Qur’on o‘qitishadi.

Tandirni buzishdan oldin, albatta, yangi tandir olib kelinadi. Shundagina eski tandirni sindirish mumkin bo‘lgan. Agar shunday qilinmasa oilaga zarar keladi, degan fikr bor. Tandirni buzish davlatni buzish bilan barobar deb hisoblanadi. Xalq tushunchasiga ko‘ra, tandirning ichida kulolning ruhi bo‘lar ekan. Agar tandiri buzilsa, u chumoli shakliga kirib, *oh meni yalang‘och haydadi* deb, eshikning bo‘sag‘asi orasiga kirib yig‘lar ekan. Shu sabab, oldin yangi tandirni olib kelib, uch kundan keyin o‘rnatishgan. Kulol o‘sha tandirning ichiga kira olar ekan.

Hududdagi ovchilar o‘z marosimlariga ega bo‘lishgan. Ovchilar bu yerda «mergan» deb ataladi. Merganlikka kirishishdan oldin Zarabog‘ qishlog‘idagi eng bilimli ulamodan risola olishlari kerak bo‘ladi. Shundagina uning otgan hayvoni halol sanaladi. Ov oxirida otilgan o‘lja mergan va unga yordam bergen kishilari o‘rtasida teng taqsimlanadi.

Ovchilarning piri sifatida Pahlavon Ahmad Zamshiy e’zozlanadi. Afsonaga ko‘ra, u kishi o‘qqa «zam» o‘qib, keyin hayvonlarni otar, o‘qilgan «zam» buyruqqa binoan albatta nishonga tegar ekan.

Qishloqlarda merganlar o‘rtasida muayyan jonivorlarni ovlash bo‘yicha farqlar uchraydi. Jumladan, Xatak guruhiga kiruvchi qishloqlar aholisi jayrani makruh deb bilib unga ov hayvoni sifatida qarashmagan. Sheroboddaryoning boshqa qishloqlarida esa, jayra ovlangan. To‘ng‘iz islom dinida harom hisoblanganligi uchun otishmagan. Lekin XX-asr o‘rtalaridan boshlab merganlar bemalol to‘ng‘iz ovlashni boshlashgan.

Ovchilarga mingta hayvонни otishga ruxsat beriladi. Odatdagи vaqtда ovlangan hayvon yonboshiga yiqilib tushsa, minginchi bo‘lib otilgan hayvonning shoxi yerga, tuyoqlari esa, to‘rt oyoqlab tik turadi. Bu «o‘mma turish» deyiladi. Xuddi shunday vaziyatga xataklik Abdumurod mergan Otaniyozov va kampirtepalik Xudoynazar mergan duch kelishgan. Bunday holat faqat bir miltiqdан otilgan minginchi hayvon bo‘lsagina sodir bo‘lar ekan. Agar ovchi o‘mma holiga duch kelsa, o‘sha zahoti ov kiyimlarini otilgan hayvonining oldiga tashlab ketishi lozim bo‘ladi. Hayvонни ham o‘sha yerning o‘zida qoldirib ketadi. Agar shunday qilmay, ovni yana davom ettiradigan bo‘lsa, ziyon ko‘radi deb hisoblanadi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Sheroboddaryo qishloqlari aholisi xo‘jalikning turli sohalari bilan shug‘ullanar ekan, albatta muayyan marosimlarni bajarishgan. Marosimlarni o‘tkazar ekan, odamlar yil yaxshi kelishini, hosil ko‘p bo‘lishini, ofat va kulfatlardan saqlanishini, ishiga baraka kelishidan umidvor bo‘lishgan. Bu odat va an’analalar ma’lum bir o‘zgarishlar bilan bugungi kunga qadar saqlanib qolgan.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abduraxmanov I.R. Boysun o‘yinlari // O‘zbekiston san’atshunosligi. Ilmiy to‘plam. – Toshkent, 2003. –106-112 b.
2. Abduraxmanov I.R. Boysun tamoshaviy o‘yinlari va marosimlari / Boysun tarixi va an’analari. –Toshkent, 2005. –114-118 b.
3. **Anorov J. Tangidara qaldirg‘ochi. –Toshkent, 1998. – 112 b.**
4. Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007.
5. Ahmedova G. Milliy ma’naviyatimizda baxshichilik maktablarining o‘rni // «O‘tmishga nazar» jurnali, 2020 yil, 2 – maxsus son. –58-60 b.
6. Ahmedova G. Surxondaryo baxshilari //«O‘tmishga nazar» jurnali, 2020 yil, 4-maxsus son. –54-58 b.
7. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. I jild. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. –Toshkent: Fan, 1968. – 488 b.
8. Бичурин Н.Я. Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Изд. 2, Москва-Ленинград, том ИИ, 1951. – 334 с.
9. Tursunov S., Tursunov A., Tog‘ayeva M. Sherobod tarixidan lavhalar. –Toshkent: Yangi-nashr, 2014. –356 b.
10. Tursunov S.N., Pardayev T., Begimqulov O. O‘zbek milliy kurashi: tarixi va an’analari. – Termiz: Surxon-Nashr, 2015. – 204 b.
11. Tursunov S., Pardayev T., Tursunova N., Murtazoyev B. O‘zbekistonda baxshichilik san’atining shakllanishi va taraqqiyoti tarixi. –Toshkent, 2015. –256 b.

IV. Dissertasiya va avtoreferatlar

12. Ahmedova G.O‘. O‘zbekistonning janubiy hududlarida baxshichilik an’analaring etnomadaniy jarayonlarga ta’siri (XIX-asrning ikkinchi yarmi- XXI asr boshlari). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. –Termiz, 2022. – 151 b.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073/Volume-3, Issue-1

13. Umarov I.I. Ko‘hitangtog‘ qishloqlari aholisi nomoddiy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari. tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi. –Termiz, 2022. -174 b

Dala yozuvlari.

¹ Dala yozuvlari, Boysun tumani, Xomkon qishlog‘i, 2021 yil.

¹ Dala yozuvlari, Boysun shahri, 2022 yil.

¹ Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari... –B. 133-134.

¹ Qurbanov A. Shimoliy Surxon vohasi aholisi an’anaviy madaniyatining etnik va lokal xususiyatlari (XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarmi). Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. –Toshkent, 2009. –B. 138.

¹ Dala yozuvlari, Muzrabot tumani, Yangier qishlog‘i, 2014 yil.